

O'ZBEKISTONDA SPORT SOHASIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH MASALALARI

Tishabaev Alisher Maxamadjonovich

**O'zbekiston respublikasi Sport vazirligi Davlat sport
akademiyasi Huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta
tayyorlash va malakasini oshirish
instituti Farg'ona filiali direktori
+998902303015**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15597791>

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistonda sport sohasida o'rta-maxsus va oliy malakali kadrlar tayyorlash jarayoni, Respublika Olimpiya zaxiralari kolleji va Jizzax davlat pedagogika universitetining jismoniy madaniyat fakultetining roli haqida so'z boradi. Maqolada ushbu ta'lim muassasalari tomonidan sport kadrlarini tayyorlashdagi yutuqlar va mamlakat sportini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: sport, kollej, jismoniy madaniyat, malaka, kadr, salohiyat.

Mustaqillik yillarida o'rta-maxsus ma'lumotli sport kadrlarini tayyorlash masalasi O'zbekiston sport sohasida muhim ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, Respublika Olimpiya zaxiralari kolleji ushbu yo'nalishda yetakchi ta'lim muassasasi sifatida faoliyat olib bordi va yillar davomida sport sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashda muhim rol o'ynadi.

Kollej, avvalo, mamlakat sportining rivojlanishiga hissa qo'shish va chempionlar tayyorlash borasida yetakchi o'rinni egalladi. 2019-yilda ushbu ta'lim muassasasida 20 dan ortiq sport turlari bo'yicha 700 ga yaqin yoshlar tahsil oldi. Kollejning kadrlar tayyorlashdagi muvaffaqiyatlari va amalga oshirilgan ishlari sport sohasi uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi [1.67.].

Ma'lumot o'rnida aytish muhimki, 2019-yilda Jizzax davlat pedagogika universitetining Jismoniy madaniyat fakultetida 2 ta: jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi hamda sport turlarini o'qitish metodikasi kafedralari mavjud bo'lib, kafedralarda jami 42 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat ko'rsatdilar, ulardan 1 nafari professor, 1 nafari professor vazifasini bajaruvchi, 6 nafari dotsent, 3 nafari pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), 10 nafari katta o'qituvchi, 10 nafari o'qituvchi va 8 nafari stajyor-o'qituvchilardan iborat bo'ldi [2.]. Ushbu fakultetda to'rtta: jismoniy madaniyat, xotin-qizlar sporti, sport faoliyati: kurash va sport faoliyati: voleybol ta'lim yo'nalishlari mavjud bo'lib, ushbu yo'nalishlarda mazkur yilda jami 882 nafar talabalar bakalavr bosqichida, shuningdek, 74 nafar talabalar "Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi" magistratura bosqichida tahsil oldi. Fakultetda quyidagi kunduzgi, ya'ni sport faoliyati: (kurash) yo'nalishida jami 57 nafar, sport faoliyati: (voleybol) yo'nalishida 27 nafar talabalar tahsil oldi [3.116]. Universitetda professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyati hamda o'quv moddiy-texnika bazasi bu ta'lim yo'nalishlari talabalarini yuqori saviyada o'qitishga barcha imkoniyatlar mavjud va ulardan samarali foydalanish yo'lga qo'yildi.

Shuni ham qayd etish lozimki, universitetda bu ta'lim yo'nalishining ochilishi qo'shni Sirdaryo va Samarqand viloyatlari uchun ham malakali sport trenerlari kurash va voleybol sport turi bo'yicha kadrlar tayyorlashga imkoniyat yaratdi hamda bu viloyatlarning kadrlarga bo'lgan ehtiyoji qondirildi. Bundan tashqari, barcha ta'lim muassasalari hamda BO'SMlar yosh

sportchilarni milliy kurash hamda voleybol sport turlariga qiziqishini orttirishga doimiy ravishda ko'mak berib keldilar.

2019-yili respublikada sportga doir boshqaruv kadrlari tayyorlash tizimini yo'lga qo'yishni zamon talablari asosida yo'lga qo'yish maqsadida oliy ta'lim muassasalarining soni 3 taga, soha kadrlarini qayta tayyorlashga ko'mak beruvchi muassasalar soni esa 4 taga yetkazildi. Jumladan, P.F. Lesgaft nomidagi Sankt-Peterburg milliy davlat jismoniy tarbiya, sport va salomatlik universiteti bilan hamkorlikda qo'shma jismoniy tarbiya, sport va salomatlik fakultetida sohaga doir kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi [4.448.].

Aynan shu yili respublikadagi jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchilar soni 6631,0 ming nafarni tashkil etgan bo'lib, ulardan 3465,9 ming nafari qishloq joylarida shug'ullandilar. Bundan tashqari, sport seksiyasi va bo'limlarida darsdan va ishdan tashqari sport bilan shug'ullanganlar soni 2727,4 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, qishloq joylarida 1287,1 ming kishi sport bilan shug'ullandi. Jismoniy tarbiya va sport xodimlari soni 50834 nafarni tashkil etadi, ulardan 11740 nafari ayollarni tashkil qildi. Jami sportchilar tarkibida 14164 nafarini murabbiylar, 37769 nafarini sport seksiyalarini yurituvchi o'qituvchilar (instruktorlar) tashkil etdi [3.117.].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Respublika Olimpiya zaxiralari kolleji va Jizzax davlat pedagogika universitetining jismoniy madaniyat fakulteti mustaqillik yillarida sport kadrlarini tayyorlashda muhim o'rin tutdi. Ularning faoliyati mamlakat sportining rivojlanishi va sport sohasi uchun malakali kadrlar yetishtirilishiga katta hissa qo'shdi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zMA, M.38-fond, 1-ro'yxat, 234-yig'majild, 67-varaq.
2. <https://jdpu.uz/universitet/fakultetlar/jismoniy-madaniyat/>
3. O'zMA, M.1-fond, 16-ro'yxat, 12-yig'majild, 116,117-varaq.
4. Ўзбекистон Республикаси Жисмоний тарбия ва спорт вазирлиги жорий архивининг 2019 йилдаги жисмоний тарбия ва спорт соҳасида бажарилган ишлари бўйича ҳисоботидан. –Б.448.